

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

*60812200 – O‘simlikshunoslik (gulchilik)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari*

Toshkent

ЎЗР ОУМТВ

*Бўйруқ № 356
“18 * 08 2021 йили”*

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent davlat agrar universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021yil «17» 08 dagi 3 - sonli yig‘ilishida ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil «18» 08 dagi 356-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur malaka talabi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik) bakalavria ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik)ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik)ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik)ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy vazifalari.....	5
2.	60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik)ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	6
2.1.	Umumi kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
	Bibliografik ma’lumotlar.....	8
	Kelishuv varag‘i.....	9

1. 60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. O‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi

Malaka talabi 60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuuni ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilar:

- mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruva xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalar;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatlari davlat organlari;

- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shakslar.

1.2. 60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:

60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik) – Qishloq xo‘jaligi – sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, o‘simlikshunoslik sohasida tashkilotlarida mehnat faoliyatini tashkil etish, mehnatni me’yorlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda yaylov va gul o‘simliklarini o‘stirish, ko‘paytirish, urug‘chilik ishlarini tashkil etish, tabiiy gulzorlarni saqlash va smaradorligini oshirish, gulzorlarni fitomeliorasiya ishlarini amalga oshirish, yaylov-cho‘l ekologiyasini yaxshilash, yaylovlarda yuqori va sifatli oziq birlik yetishtirishni ta’minlaydigan o‘simliklar qoplamini shakllantirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish, me’yoriy hujjatlarini ishlab chiqish va amaliyatga tadbiq etish, gul yetishtirishning innovasion texnologiyalar asosida mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshirish bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- Respublika qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonlar, Respublika Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, qishloq xo‘jaligi viloyat boshqarmalari, tuman qishloq xo‘jalik bo‘limlari, Respublika fermer, dehqon xo‘jaliklari va yer egalari Kengashi, viloyat va tuman bo‘limlari, O’simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti va uning viloyatlardagi filiallari, yem-xashak ekinlarini navlarini sinash uchastkalari, elita va urug‘chilik xo‘jaliklari, chorvachilikka ixtisoslashgan yaylov mintaqasi chorvachilik klasterlari, yaylov-cho‘l o‘simlikshunosligi dorivor o‘simliklari plantasiyalari, o‘rmon xo‘jaligi Respublika va viloyat boshqarmalari, tabiatni muhofaza qilish tashkilotlarining yaylov-cho‘l o‘simliklari bo‘limlari;

- qishloq xo‘jaligi boshqarmalari, yaylov va cho‘l mintaqasi chorvachilik klasterlari, o‘rmon xo‘jalinining dorivor o‘simliklar plantasiyalari bo‘limlari, qorako‘lchilikka ixtisoslashgan klasterlar yaylov va cho‘l o‘simliklari, ilmiy-tadqiqot jarayonlari;

- davlat, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari.

1.2.3. 60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.

1.2.4. 60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari

60812200 – O’simlikshunoslik (gulchilik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy bilimlarni qo‘llash orqali boshqarish;
- tashkilot, korxona va ularning alohida bo‘linmalarini tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish;
- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo‘g‘in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyatga tadbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirop etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investisiyalarni jalg qilish mexanizmlarini qo'llash, investision loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;
- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;
- loyihamalar samaradorligini baholash;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;
- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;
- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishga qatnashish;
 - xo'jalik yurituvchi subyektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;
 - tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
 - internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
 - ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
 - tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbiq etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60812200 – O'simlikshunoslik (gulchilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr larning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo‘llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotni tayyorlashni, ma’lumotlar bazasini yuritishni bilish;

- qishloq xo‘jaligi, jumladan chorvachilik ishlab chiqarish jarayonlarida yaylov-cho‘l o‘simlikshunosligi texnologiyalarini amalga oshirish rejasini tuzish va nazorat qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- yaylov-cho‘l o‘simliklari turlarini ko‘paytirish, urug‘chiligin tashkil etish, o‘simliklarni o‘stirish, parvarishlash, yig‘ishtirish, saqlash, tarqatish, ularni marketingi bo‘yicha klaster tashkil etishni bilish;

- qishloq xo‘jaligida barcha turdag‘i chorva hayvonlari uchun yaylovlar va cho‘l o‘simliklari qoplamini ko‘paytirish, o‘simliklar o‘stirishning resurstejamkor texnolgiyalarni joriy etish, tabiiy yaylovlar meliorasiyasi, dorivor o‘simliklar plantasiyasini tashkil etish, zaharli va zararli yaylov –cho‘l o‘simliklarini tarqalishini oldini olish, fitosanitariya ishlarini o‘tkazish, yil davomida doimiy yaylov-cho‘l o‘simliklaarning o‘sishi va rivojlanishini ta‘minlaydigan choratadbirlar ishlab chiqish, o‘simliklarni o‘stirish, yig‘ishtirish, tashish, ozuqani saqlash jarayonlarida agronomik uquviga ega bo‘lish;

- qishloq xo‘jaligi, jumladan, chorvachilik sohalarida yaylov-cho‘l mintaqasi o‘simliklari qoplami samaradorligini oshirishda ozuqa zahirasini yil davomida ta‘minlanishida xavfsizlikni ta‘minlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Gulchilik xo'jaligini tashkil etish va yuritish, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturi, o'quv jarayoni, loyiha-texnologik, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, baholash, sifat nazorati, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari, gidroponikali issiqxonalar, makro elementlar, mikro elementlar, pylonka, tumanlashtirish, mikroiqlim, gofra, orkplast, generator, suv tankerlari, osmosli suvni tozalovchi qurilma, issiqlik pardalari, yorug'lik pardalari, tomchilatkichli quvirlar, dazator, shlang naychalar, hashorat tutuvchi to'rular, fankoil isitgichlari, tayanch trubalar, karali mashinalar, xosil iplari, xosilni tashuvchi teleshkalar, suvni nitratini o'lchovchi mikro dadtchiklar (Ph), ozuqali muxitni o'lchovchi ES dadtchiklar.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILDI:

Toshkent davlat agrar universiteti

Rektor  B.Sulaymonov

2021 yil « 19 » 08

M.O'.



KELISHILDI:


O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limini rivojlantirish
tadqiqotlari va jig'or texnologiyalarini tafbiq
etish markazi

Direktor v.b.  M.Esonov

2021 yil « 19 » 08

M.O'.

Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti


Rektor  K.Komilov

2021 yil « 19 » 08

M.O'



O'simliklar genetik resurslari
ilmiy tadqiqot instituti

Direktor  S.Alikulov

2021 yil « 19 » 08

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi
vazirining iqtisod, innovatsion rivojlanish va
investitsiyalar masalalari bo'yicha
maglahatchisi


A.Shukurov

2021 yil « 26 » 08

M.O'.



Sabzavot-poliz ekinlari va kartoshkachilik
ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor  R.Nizomov

2021 yil « 19 » 08

M.O'.

